

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova

Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti 4

M.Sh.Abdurahimova

Sukut psixofiziologiyasi 12

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova

Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin 15

D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova

O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi 26

N.Abduraxmonova, A.Iskandarova

Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi 29

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari 33

Z.B.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiy ko'plikning ifodalanishi 37

D.R.Ismoilova

The linguopoetics of John Steinbeck's works 42

I.A.Soatov

"Ta'lim-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi 46

Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева

Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы 52

Ш.У.Жалолов

Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур 56

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili 61

U.M.Askarova

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 65

I.Sh.Kurbanova

Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi 70

R.A.Xamrakulova

Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili 74

Sh.S.Shadiyeva

Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyotga filologik yondashish 78

Д.О.Турдалиев

Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре 84

L.T.Toshxonov

Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romanchilik na'munalarida ifodalanishi 88

Ш.Н.Г.Мамедова

Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили 92

A.M.Temirova

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantik tahlili 98

F.H.Jamilli

The sociolinguistic nature of the representation of female dominance 102



UO'K: 811.512.133.43

NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI AYRIM OTLARDA ARABIY KO'PLIKNING IFODALANISHI**THE EXPRESSION OF THE ARABIC PLURAL IN SOME NOUNS IN THE EPIC “SADDI OF ALEXANDRIA” NAVOI****ВЫРАЖЕНИЕ АРАБСКОГО МНОЖЕСТВЕННОГО ЧИСЛА У НЕКОТОРЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В ЭПОСЕ “САДДИ АЛЕКСАНДРИЙСКИЙ” НАВОИ****Alimova Zarifa Vaxobovna** 

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida ayrim otlarning ko'plik shakli, arabiy ko'plik qo'shimchalari, siniq ko'plik shakli xususida so'z boradi. Asardagi ayrim so'zlarining morfologik xususiyatlari, ularning leksik ma'nolari, forscha-tojikcha lug'atlardagi izohlarga asoslanganligi, forscha so'zlarning Navoiy asarlari izohli lug'atidagi leksik ma'nolari yuzasidan ilmiy qarashlar keltirilgan. Arabiy ko'plik qo'shimchalari qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan otlar, ularning ayrimlarida arabiy siniq ko'plik mavjudligini aniqlash maqolaning asosiy maqsadi qilib belgilandi. Maqolada keltirilgan forscha so'zlarning leksik va semantik xususiyatlari izohlangan.

Abstract

This article talks about the plural form of some nouns, Arabic plural suffixes, broken plural form in Alisher Navoi's epic “Saddi Iskandariy”. The morphological characteristics of some words in the work, their lexical meanings, the fact that they are based on explanations in Persian-Tajik dictionaries, and the lexical meanings of Persian words in the annotated dictionary of Navoi's works are presented. The main goal of the article is to determine the nouns formed as a result of the addition of Arabic plural suffixes, and the presence of Arabic broken plural in some of them. The lexical and semantic features of the Persian words mentioned in the article are explained.

Аннотация

В данной статье идёт речь о форме множественного числа некоторых существительных, арабских суффиксах множественного числа, ломаной форме множественного числа в эпосе Алишера Навои «Садди Искандарии». Представлены морфологическая характеристика некоторых слов в произведении, их лексические значения, то, что они основаны на пояснениях в персидско-таджикских словарях, а также лексические значения персидских слов в аннотированном словаре произведений Навои. Основная цель статьи - определить существительные, образовавшиеся в результате присоединения арабских суффиксов множественного числа, и наличие в некоторых из них арабского ломаного множественного числа. Объясняются лексические и семантические особенности персидских слов, упомянутых в статье.

Kalit so'zlar: so'z haqida tushuncha, otlarda ko'plik, arabiy ko'plik, siniq ko'plik, ichki fleksiya, qofiya, ko'plik qo'shimchalari.

Key words: concept of word, plural in nouns, Arabic plural, broken plural, internal inflection, rhyme, plural suffixes.

Ключевые слова: понятие слова, множественное число существительных, арабское множественное число, ломаное множественное число, внутреннее словоизменение, рифма, суффиксы множественного числа.

KIRISH

Buyuk shoir Alisher Navoiy o'zining nodir asarlari bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan. Uning asarlari dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan. Eng e'tiborlisi shuki, buyuk shoir o'z asarlarida takrorlanmas so'zlardan foydalangani, ma'lum bir turkiy so'zning forsiy va arabiy sinonimlaridan, antonimlaridan istifoda etgani uning til va adabiyot sohasida juda katta iste'dod va mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. O'zbek tilshunosligining rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan tilshunos olim A.Nurmonovning ta'kidlashicha, jahon madaniyati tarixida katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan Alisher Navoiy butun faoliyatini o'zbek madaniyatini dunyoga tanitish, o'zbek tili mavqeini baland ko'tarishga bag'ishladi [3,73].

ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida Navoiy asarlarini o'rganish, ularni lingvistik tadqiq etish XX asrning 40-yillaridan boshlangan. Navoiyshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan adabiyotshunoslardan A.Hayitmetov, B.Abdullayev, I.Haqqul, S.G'aniyeva, A.Qayumov, Yo.Is'hoqov, H.Jo'rayevlarning xizmatlari katta. Navoiy asarlarini lingvistik jihatdan tadqiq etgan tilshunoslardan B.Bafojev, A.Nishonov, E.Umarov, S.Ashirboyev, A.Rustamov, M.Qodirov, F.Hayitmetov, N.Umarova, A.Karimov, Z.Isaqova, D.Abdulvaliyeva kabi olimlarning ilmiy izlanishlari tahsinga loyiq. Q.Muhiddinov, X.Doniyorov, U.Sanaqulovlar Navoiy asarlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishga munosib hissa qo'shganlar.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov Alisher Navoiy haqida bunday yozadi: Navoiy turkiy tilning butun nazokatini, so'zga boyligini "Muhkamat ul-lug'atayn" dagina emas, butun umr, butun ijod jarayonida namoyon qilganlar. O'zbekning sodda, to'pori so'zlarini ham, she'rga solish mumkin bo'lmagan darajada oddiy va jo'n gaplarni ham nozik g'azalga kirita olganlarki, bundoq sehdan lol bo'lmay iloj yo'q. Masalan, "tish qirchillatish" iborasini bugungi shoirlarimiz aruz bayt u yoqda tursin, hatto xalqona sodda barmoq vaznida aytishni o'zlariga ep ko'rmaydilar. Navoiyga quloq tuting:

*Tushda ko'rdim yorni, shodon raqibim o'truda,
Rashkdin har lahza tish qirchillaturman uyquda* [2,12-13].

A.Nurmonov A.Navoiy haqida shunday yozadi: shoir turk tilini xazina, chamanzor hisoblaydi. Bu shunday xazina, chamanzorki, atrofi el oyog'i yetishidan asralgan va qimmatbaho narsalarga boshqalarning qo'li tegishidan saqlangan. Alisher Navoiy o'zbek shoirlarini ijod qilishga, hech bo'lmaganda har ikki tilda barobar qalam tebratishga chaqirdi. U o'zbek adabiy tilining ravnaqi uchun kurashni davrning eng muhim ishi deb bildi:

*Senga oncha haq lutfi voqe'dudur,
Ki to turk alfozi shoye'dudrur.
Bu til birla to nazm erur xalq ishi,
Ya'qin qilmamish xalq senidek kishi* ("Saddi Iskandariy") [1,74].

Tilshunos olim M.Rahmonovning e'tiroficha, so'z tilning asosini, yadrosini tashkil etadi. Avval so'z bo'lgan, so'z yaratilgan, deyiladi muqaddas kitoblarda:

*So'z kelib avval-u jahon so'ngra,
Ne jahonki kavn ila makon so'ngra* (Alisher Navoiy) [5,3].

Adabiyotshunos V.Rahmon ta'kidlaganidek, Navoiyning "Xamsa"si ta'sirida Podshohxoja ibn Abdulvahhobxo'ja "Maqsad ul-atvor" dostonini yozdi. Muhammadniyoz Nishotiy ham "Husn va Dil" dostonini yozib, xamsachilar safida ekanini da'vo qildi. "Mahbub ul-qulub" ta'sirida Xojaning "Gulzor" va "Muftoh ul-adl" hikoyatlar kitoblari yozildi. Xorazmlik Rizo'iy Payvandiy "Lison ut-tayr"ga tatabbu'qilib "Mantiq ut-tayr" dostonini yaratdi [4,10].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Navoiy asarlarida otlarning ko'plik shaklini ifodalashda forsiy, arabiy ko'plik qo'shimchalaridan ham foydalangani uning buyuk tilshunos va adabiyotshunos ekanligidan dalolat beradi. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llangan ko'plik qo'shimchalari va ular ishtirokidagi baytlardan misollar keltiramiz. Dostonda otlarga turkiy ko'plik qo'shimchalaridan tashqari arabiy ko'plik qo'shimchalarining qo'shilish hollari ko'p uchraydi. Masalan:

*Chu bir junbush etti ayon bahri zot,
Padid o'ldi amvojdin koinot* (Saddi Iskandariy, 4-bet).

Ma'nosi: *Egamlik daryoying shunday bir junbushga keldiki, uning mavjlaridan butun borliq – olam yaraldi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 4-bet).

Mazkur baytdagi **amvoj** so'zi **mavj**ning arabiy ko'pligidir. Ma'limki, arab tilida siniq ko'plik deb nomlanuvchi ko'plik shakli mavjud. Siniq ko'plik shakli so'zlarning ichki fleksiyalari o'zgarishi, qo'shimcha harflar orttirish orqali hosil qilinadi. Bu yo'l bilan yasalgan ko'plik shakldagi so'zlar fors tiliga tayyor holda, otlarning ko'plik shakllarida kirib kelganlar. Arab ko'plik shaklining yasalishi birmuncha murakkab bo'lgani uchun, odatda lug'at va darsliklarda so'zlarning birlik shakli bilan bir qatorda ularning ko'plik shakli ham beriladi. Masalan:

شخص shaxs - shaxs, kishi اشخاص ashxos – shaxslar, kishilar
ملت millat – millat ملل milal- millatlar

TILSHUNOSLIK

شعر sher – she’r

اشعار ash’or – she’rlar [1, 211-212].

Demak, arab tilida siniq ko’plik so’zga qandaydir qo’shimcha qo’shilishi bilan emas, uning o’zagida o’zgarish sodir bo’lishi bilan yasalar ekan [6, 367]. Arab tilida siniq ko’plik shakli odatda so’zning birlik shakli bilan birga yodlab boriladi. Ularni aynan qaysidir qoidaga asoslanib o’rganish imkoniyati deyarli yo’q [7, 639].

Yuqoridagi otlar singari **amvoj** so’zi ham birlikdagi **mavj** so’zining siniq ko’plik shaklida yasalganiga misoldir.

Yuqoridagi ko’plik shakliga (*mavj - amvoj*) qofiyadosh sifatida quyidagi misolni ham keltirish mumkin:

Yemas elki amvol aro bo’lsa g’arq,

Alar birla mufllislar ichra ne farq (Saddi Iskandariy, 74-bet).

Ma’nosi: *Mol-dunyoga g’arq non yemas xasislarning kambag’allardan ne farqi bor?* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 74-bet).

Baytda keltirilgan “amvol” “mol” so’zining siniq ko’pligi bo’lib, “mol-mulklar”, “boyliklar” so’zining siniq ko’pligidir.

Siniq ko’plik shakllari uchragan baytlardan yana quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Vale anbiyo ichra andoqki, shoh

Muhammad kelib, o’zga – xaylu sipoh (Saddi Iskandariy, 48-bet).

Ma’nosi: *Lekin payg’ambarlar ichida Muhammad shohning (s.a.v.) qo’shin va sipohlari o’zgacha edi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 49-bet).

Mazkur baytdagi **anbiyo** so’zi **nabi** (payg’ambar) so’zining ko’pligidir.

Maloyik inib ravshan axtar kibi,

Uchub dahr davrida shabpar kibi.

Bu qushlar jinoi yeli chun yetib,

Shayotin g’uborini barbod etib, (Saddi Iskandariy, 15-bet).

Ma’nosi: *Farishtalar porloq, yulduzlar kabi yoxud olam atrofida uchayotgan shabparaklar singari yuqoridan pastga tushdilar. Bu qushlarning qanoti eli yetgan joylarda shaytonlar g’ubori ko’kka sovurildi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 18-bet).

Mazkur to’rtlikdagi *maloyik – malika (farishta), shayotin – shayton* so’zlarining siniq ko’pligidir.

Vale bo’ldi chun ganjiyu maxzani,

Xaloyiq erur jonining dushmani (Saddi Iskandariy, 4-bet).

Ma’nosi: *Lekin dunyo-yu xazinasi bo’laturib, o’zi baxil bo’lsa, xaloyiq uning joniga dushmandir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 74-bet).

Keltirilgan baytdagi **xaloyiq** so’zi **xalq** so’zining siniq ko’plik shaklidir

Shuru’i dog’i nopadidor o’lub

Ki, tag’yir vaz’ig’a dushvor o’lub.

Latoyif topilmas edi oncha ham,

Yana to’rtiga lohiq o’lg’oncha ham.

Ko’ngulda topilmasdin ozor edi,

Va lekin topar fikrida bor edi (Saddi Iskandariy, 44-bet).

Ma’nosi: *Uning tuzilishini – tartibini bir rejaga solib olish ham oson bo’lmay, turli latifa va ajoyib hikmatlar topish, avvalgi to’rt dostonida bo’lgani kabi yangi-yangi qo’shimchalar kiritish ham ko’ngilga ozor berar va lekin ularni topib, joy-joyiga qo’yish umidi yo’q emas edi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 47-bet).

Mazkur misoldagi **latoyif** so’zi **latifaning** siniq ko’plik shaklidir.

Quyida esa **tarix** so’zining siniq ko’plik shakli hisoblangan **tavorix** so’zi ishtirokidagi baytlardan misollar keltiramiz:

Qo’yubtur **tavorixu** afsonasin,

Bitiydur degan durri yakdonasin (Saddi Iskandariy, 45-bet).

Ma’nosi: *...jumladan, Iskandarning tarixi va u haqdagi afsonalarni tushirib qoldirib, u tarafidan aytilgan dur kabi bebaho so’zlarini yozgan ekan* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 47-bet).

Ko’p ettim tavorix o’qur sori mayl,

Hamonoki bor erdilar to’rt xayl (Saddi Iskandariy, 55-bet).

Ma'nosi: *Tarix sahifalarini juda ko'p ko'zdan kechirgach, bu shohlarning to'rt tabaqa ekanliklari ma'lum bo'ldi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 57-bet).

Tavorix *vaz'ig'a behad futur*

Ki, andin bu fan ichra bo'lmish qusur.

Vale ulcha bergaylar andin xabar,

«Nizom ut-tavorix» *erur mu'tabar* (Saddi Iskandariy, 56-bet).

Ma'nosi: ...tarixlarga behad future va bu fanga ko'pgina qusurlar yetgan bo'lishi tabiiydir. Lekin bu tarixdan xabar berganlar orasida "Nizom ut-tavorix" ("Tarixlar nizomi") kitobi mukammal va mo'tabardir (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 57-58-betlar).

Shunday sinq ko'plik shakllari ham mavjudki, ular izofiy birikma tarkibida ham uchraydi. Masalan:

Ki, tarix tahririn etgan raqam,

Bitibdur alarni «Muluki ajam» (Saddi Iskandariy, 55-bet).

Ma'nosi: *Shu tarixni yozgan odam ularni "Eron shohlari" deb atalgan asarida bitgan* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 57-bet).

Mazkur baytdagi **muluki ajam** izofiy birikma bo'lib, "muluk" - *molik*, ya'ni *shoh*, *mulkdor* so'zining sinq ko'plik shaklidir. Izofiy birikmadagi ajam so'zi orqali Eron davlati tushuniladi. Demak, "**Muluki ajam**" – "*Eron shohlari*" demakdir

Quyidagi misollarda birlikdagi otning ko'plik shakli sinq ko'plik shaklida emas, balki –ot ko'plik qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasalganiga guvoh bo'lamiz.

Zarrot زُرُوت ot turkumiga oid leksema bo'lib, *zarra* so'zining ko'pligidir (*zarralar*). Ushbu so'zga qo'shilgan –ot ko'plik qo'shimchasi arabiy bo'lib, bunday ko'plikdagi so'zlar o'zbek tilida ko'p uchraydi: *axborot*, *mavjudot*, *hayvonot*, *targ'ibot*, *tashkilot*, *g'aroyibot*, *sabzavot* va h.k. Savol tug'ilishi mumkin: agar *zarrot* *zarra* so'zining ko'pligi bo'lsa, uning birlik shaklidagi **a** harfi nima sababdan tushib qoladi? Buning javobi quyidagicha: arab-fors tillarida otlarning ko'plik shakllariga oid qoidalarda quyidagicha izoh keltirilgan: agar birlikda turgan otning oxirgi harfi **a** (fors tilida **e**) bo'lsa, bunday otlarga –ot ko'plik qo'shimchasi bevosita so'z asosiga qo'shilib, so'z oxiridagi **a** (fors tilida **e**) harfi yozuvda ham, talaffuzda ham tushib qoladi. Masalan: مجلة *majalla* (fors tilida *majalle*)- jurnal, مجلات *majallot*-jurnallar, اداره *idora* (fors tilida *edore*) – ادارات *idorot* –idoralar, *maqola* (fors tilida *maqole*)- مقالات *maqolot* – maqolalar va h.k.

ANATILda *zarra* so'zining quyidagi ma'nolari uchrashi ta'kidlanadi: a) eng mayda bo'lak, eng kichik qism; *zarra*; b) chang, to'zon; c) quyosh nurlari; d) juda oz, andak; e) zarracha [1,622].

"Saddi Iskandariy" dostonida *zarrot* leksemasi ishtirok etgan quyidagi baytlarga diqqatni qaratsak:

Yorurda quyosh partavidin saro,

Qachon farq o'lur fahm zarrot aro (Saddi Iskandariy, 11-bet).

Ma'nosi: *Quyosh nurlari bilan munavvar qilgan chog'ida zarralar orasida farq borini kim fahmlabdi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 13-bet).

Bunday ko'plik qo'shimchasi qo'shilgan otlarni "Saddi Iskandariy"da ko'plab uchratish mumkin:

Suray hikmatoso maqolotini,

So'z ichra ajoyib xayolotini

Berib doston zebi elga fireb,

So'zidin fireb o'lg'ay ortuqsi zeb (Saddi Iskandariy, 45-bet).

Ma'nosi: *uning (Iskandarning) qilgan ishlari haqida bir doston yozilsa, uning qimmatli fikrlarini ham san'atkorlik bilan dostoniga kiritilsa, uning hikmat to'la so'zlarini ajoyib tuyg'u va orzulari tasvirlansa, doston go'zallashib, elni o'ziga maftun qilishi turgan gap* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 48-bet).

Baytdan ko'rinadiki, **maqolot** *maqola* va **xayolot** xayol so'zlarining ko'pligidir.

Quyida keltirilgan baytda **jamoat** oti keltirilgan bo'lib, u jamoa so'zining ko'pligidir. Ma'lumki, arab tilida to'g'ri ko'plik so'z oxirida ta marbuta va tanvin tushib qolishi hamda shu so'zga ات qo'shimchasi qo'shish orqali yasaladi. Masalan: معلمات = معلمه + ات

Shu o'rinda "Saddi Iskandariy"dan ana shunday ko'plik ishtirokidagi baytdan misol keltiramiz:

Bular yo'qki, har kimki nazme demish,

TILSHUNOSLIK

Va yo bu jamoatqa doxil emish

Borig'a niyozu duodur ishim,

Alardin madad muddaodur ishim (Saddi Iskandariy, 46-bet).

Ma'nosi: *Bular* (yuqoridagi ustozlar)gina emas, yana kim se'riyat bilan shug'ullangan, umuman, adabiyotga aloqador b'lsa, hammasining ruhidan umidvorman, ular haqiga duo qilaman (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 49-bet).

Skandar chu fahm etti xasmin qatil,

Anga mulki ichra tilatti adil.

Dedikim: «Bu kishvar salotinidin,

Xabarliq jahonbonliq oyinidin (Saddi Iskandariy, 74-bet).

Ma'nosi: *Iskandar dushmanining qatl etilganini bilgach, u mamlakatda adolat o'rnatishga bel bog'lab, xalqqa: - Bu yurtning sultonlari ichida hukmdorlik qonun-qoidalaridan xabardor odam qolganmi?* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 76-bet).

Bu to'rtlikdagi **salotin** sulton so'zining siniq ko'pligidir. Bu ko'plik shaklini arab tilida otlarning birlik shakliga qo'shiladigan –in qo'shimchasidan farqlash kerak. Sababi –in ko'plik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida yasalgan birlikdagi otlarning asosi o'zagarishsiz qoladi. Masalan, muhandis (muhandis, injener) – muhandisin (muhandislar, injenerlar), molik (mulkdor)-molikin (mulkdorlar), munaqqid (tanqidchi)-munaqqidin (tanqidchilar) va hokazo.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Navoiy o'z asarlarida otlarning nafaqat turkiy ko'plik qo'shimchalaridan, balki forsiy hamda arabiy ko'plik qo'shimchalaridan ham foydalangan. Bu esa o'quvchiga shoir asarlarini yanada teranroq tushunishga, so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Demak, Navoiy biz uchun adabiy daho, komillik timsoli, ezgulik ramzidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdusamatov M. Fors tili. -Toshkent, Sharq nashriyoti, 2007. –B.211-212.
2. Воҳидов Э. Сўз латофати. –Тошкент, Ўзбекистон нашриёти, 2014. –Б.12-13.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент, Ўзбекистон нашриёти, 2002. –Б.73.
4. Раҳмон В. Мумтоз сўз сеҳри. –Тошкент, Ўзбекистон, 2015. –Б.10.
5. Раҳмонов М. Сўз ва саломатлик. –Фарғона, “Фарғона” нашриёти, 2002. –Б.3.
6. Z. Alimova. Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi forsiy sinonimlar xususida. FarDU Ilmiy Xabarlar, 2024, № 1. –B.-367.
7. Z. Alimova . (2023) Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asraidagi ayrim forsha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida. FarDU Ilmiy Xabarlar, 2023, № 2. –B.-639-643.
8. A.Z.Vaxobovna. (2022). About Some Persian-Tajik Lexis and Persian Izafetic Constructions in Navoyi's Poem" Saddi Iskandari". Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3 (11), 55-61. 13.
9. A.Z.Vaxobovna. (2023). About Some Persian Repeats Used in Navoi's Epos" Saddi Iskandari". Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 4 (1), 34-39. 14.
10. Z. Alimova. (2023). NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” ASARIDAGI FORSCHA-TOJIKCHA SO 'ZLARINING SEMANTIK JIHATDAN GURUHLANISHI. Scientific journal of the Fergana State University, 98-102. 16.
11. X.Abdulaxatova, Z. Alimova. (2022). TILSHUNOSLIKDA SO'Z YASALISHI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNING O'RGANILISHI. Journal of Integrated Education and Research 1 (6), 13-15. 17.
12. Z. Alimova, Z. Ibrohimova. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF LEXEMES RELATED TO THE WEDDING CEREMONY IN ENGLISH AND UZBEK PEOPLES. Science and Innovation 1 (7), 1277-1281.
13. AZ Vaxobovna. (2024) [THE PHENOMENA OF DERIVATION IN ENGLISH](#) .Western European Journal of Linguistics and Education 2 (5), 300-306.
14. Z. Alimova. (2024) [AFFIKSATSIIYA USULIDA YASALGAN FORSCHA-TOJIKCHA O 'ZLASHMALAR XUSUSIDA](#). O'zbek va tojik adabiyotida zullisonaynlik an'anasi. № 1. –B.125-127.
15. Z. Alimova. (2015) [Айрим форсча ўзлашмаларнинг лексик маънолари хусусида](#). ФарДУ Илмий хабарлар. Б.129-133.